

**BOSH QOMUSIMIZ KONSTITUTSIYA – TOG‘DEK TAYANCHIMIZ,
FAXRIMIZ, QUDRATLI ZAMINIMIZDIR**

Mamatova Dilorom

Roziqova Hulkar

Norov Odil

QarMII akademik litsey tarix fani o‘qituvchilari

Inson dunyoga kelib, borliqni anglay boshlabdiki, faqat bir narsaga intiladi. Bu – erkinlik. Chaqoloqni yo‘rgaklagan doya uning bunga qarshilik qilib, “inga – inga” deb bor ovozi bilan yig‘lashga guvoh bo‘ladi. Bu oddiy va jo‘n hodisa bo‘lib ko‘rinsada, zamirida insonning erkinlikka intilishi bor, aslida. Odatda, erkinlik u yoki bu jamiyatning huquqiy hujjatlarida, deylik, Konstitutsiyasi moddalar bilan belgilanadi. “Shaxs erkinligi” va inson huquqlari” degan tushunchalar bir – biriga juda uyg‘un bo‘lgani uchun ham barcha davlatlar Bosh qomusidagi ko‘plab moddalarda qayd qilinadi. Inson huquqlari – kishilarning shaxs sifatida munosib hayot kechirishi va faoliyat olib borishi lozim bo‘ladigan haq – huquqlar majmuini ifoda etadigan tushuncha. Inson huquqlari va shaxs erkinligini ta‘minlaydigan eng oliy hujjat Konstitutsiya hisoblanadi. 1992-yil 8-dekabr Oliy Kengashning XII chaqiriq XI sessiyasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tom ma‘noda inson huquqlari, shaxs erkinligini ta‘minlaydigan, uni kafolatlaydigan bosh qonun sifatida davr sinovidan muvaffaqiyatli o‘tganligi barchamizga ma‘lum. Konstitutsiyamiz muqaddimasida O‘zbekistonning insonparvar demokratik huquqiy davlat sifatida rivojlanishi alohida ifodalangan. Demak, O‘zbekiston Konstitutsiyasining bosh maqsadi – **mamlakatimizda demokratiya tartibotini o‘rnatish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash, fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari, burchlarini belgilab berish kabilardan iborat.** Biz bugun, mustaqilligimizning qariyb chorak asri davomida demokratiyaning tom ma‘nodagi mazmun – mohiyatini, uning inson huquqlarini kafolatlaydigan muhim omil ekanini ongli

ravishda anglab yetdik. Shu bilan birga, inson huquqlarini “ himoya qilish” bahonasida O‘zbekistonga “demokratik o‘yinlar “ni tiqishtirishga intilishlarni, xalq manfaatlarini niqob qilib olib, qandaydir soxta siyosiy o‘yinlar tashkil etmoqchi bo‘lganlarni ham ko‘rdik. Demokratiyani, inson huquqlarini milliy – mahaliy sharoit, xalq mentaliteti, uning o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olmasdan, uni umumiy qoida sifatida ataylab tiqishtirish mutlaqo noto‘g‘ri ekanligini Yurtboshimiz bot – bot takrorlaydi: **“ Biz shuni yaxshi anglashimiz kerakki, demokratiya hech qachon bir xil shakl yoki mazmunda bo‘lmaydi. Demokratiya degani – bu hamisha o‘zgarib turadigan hayot tarzi, jamiyat tizimining rivoji bilan uzviy bog‘liq. Demokratiya – inson, jamiyat, davlat degani uch suby’ekt o‘zaro bir – birini boyitib, kerak bo‘lsa, nazorat qilib turadigan tizim demakdir. Bu har qaysi insonning jamiyat bilan, jamiyatning esa davlat bilan munosabatini, ular o‘rtasidagi muvozanatni anglatadi”** .

Demak, muayyan darajada demokratiya boshboshdoqlik, hokimiyatning tarqoqligi, insonning ko‘ngliga kelgan ishni amalga oshirishi uchun turtki beradigan hodisa emas. Inson hayotini tartibga solib, jamiyatdagi umumiy muvozanatni ushlab turuvchi, nazorat qiluvchi, mamlakatdagi barcha sog‘lom kuchlarni birlashtirgan holda fuqarolarning tinch – totuv, farovon yashashiga yordam beruvchi, ularning haq – huquqlarini himoya qiluvchi bu tushuncha shuning uchun ham bizda o‘z qadr – qimmatiga egadir. Shu ma’noda O‘zbekiston Konstitutsiyasini inson haq – huquqlarini himoya qilishning mukammal andozasi sifatida qabul qilish lozim. Asosiy qomusimizning ikkinchi bo‘limi **“Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari”** deb nomlanadi. Bo‘limda 7 ta bob bo‘lib, inson huquq, erkinlik va burchlari 46 ta moddada o‘z aksini topgan. Bu, o‘z navbatida, shaxsning ijtimoiylashuvi, siyosiy – huquqiy madaniyatning oshishi, o‘z millati, Vataniga nisbatan mehr – muhabbatining yanada oshib borishini talab etadi. Mustaqillik yillarida ana shu qadriyatlarga ega bo‘lganimiz muhim ahamiyat kasb etdi. Fikrimiz asosli bo‘lishi uchun “Ijtimoiy

fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalarini ayrim misollar bilan keltiramiz.

Ijtimoiy so‘rovnomada fuqarolar haq – huquqlarining himoyalanihi, kishilarning o‘z yurtidan qay darajada faxrlanishi kabi o‘ta muhim masalalar tahlil etilgan. **“O‘zbekiston fuqarosi ekanigizdan qalbingizda qanday tuyg‘ular kechadi?”** degan savolga respondentlarning aksariyati **“Faxrlanish”** deb javob qaytargani ana shundan dalolat beradi. Ushbu ko‘satkich yildan – yilga o‘sib borayotir. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaviy** komissiya a‘zolari bilan uchrashuvdagi nutqida “ Bosh maqsadimiz - har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishidir ”deb takidlagan edi. Mehnat jamoalari, oliygohlar, mahalla faollari ziyolilar bilan bo‘lib o‘tgan muhokamada ham yana qarib **10 mingta** qo‘shimcha taklif kelib tushdi .Xalqaro –huquqiy hujjatlar **190** dan ortiq davlatlar tajribasi o‘rganildi ,loyiha **6 turdagi ekispertizadan o‘tkazildi .Yangilangan Konstitutsiyada** jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini inobatga olingan. Eng muhimi , tariximizda birinchi marotaba **2023 yilning 30 aprel kuni** “O‘zbekiston respublikasi **Konstitutsiyasi to‘g‘risida”** gi **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunni xalqimizning o‘zi qabul qildi . Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni amalda 128 tadan 155 taga normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi .Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi.**

77-moddada ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetganlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburligi, davlat va jamiyat boquvchisini yo‘qotgan bolalarni va ota – onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan farzandlarini boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta‘minlashi, ularga ko‘rsatiladigan hayriya faoliyatlarini rag‘batlantirish lozimligi belgilab qo‘yilgan. Ushbu qoida oilani, jamiyatni mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, ota-onalarning farzand oldidagi majburiyati aslida milliy qadriyat hisoblanadi. Qadimdan urf bo‘lib kelgan ushbu qadriyat, afsuski, so‘ngi

yillarda biroz darz keta boshladi. Buning sababi bir tomondan dunyoning tobora globallashuvi, “ommaviy madaniyat” ning turli ko‘rinishlari yurtimizga kirib kelishi bo‘lsa, boshqa tomondan, ayrim ota-onalarning oila, farzand masalalaridagi bilim, tajribasining kamligi, mas’uliyatsizligidir. Ushbu moddada davlatning yetim bolalarga g‘amxo‘rligi alohida e‘tiborli holatdir. Aslida yetim-yesirlarga yaxshilik qilish milliy madaniyatimiz, diniy tushunchalarimiz mazmun-mohiyatidan kelib chiqadi. Asosiy qonunimizning 80-moddasida voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburligi belgilab qo‘yilgan. Darhaqiqat, hozirgi kunda global ziddiyatlar avj olayotgan, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida qadriyatlar xira tortib borayotgan bir sharoitda farzand va ota-ona munosabatlari o‘ta dolzarb ahamiyatga ega bo‘moqda. Ammo voyaga yetgan farzandning o‘z ota-onasi oldidagi mas’uliyati, g‘amxo‘rligining qonun darajasida hal etilishi ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirishda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lmoqda. Shunday ekan O‘zbekiston Konstitutsiyasini qabul qilish chog‘ida **o‘zbek xalqi mentaliteti, ma’naviyati, tabiati eng muhim omillar sifatida e‘tiborga olingan ekan, inson qachonki qonunlar bilan birga ma’naviy qoidalar, ming yillar davomida shakllangan axloqiy normalar asosida shakllanar ekan, shubhasiz, o‘z chegarasini anglay oladi.**

Ma’lumki, aholining turmush sharoitini yaxshilash, hayotdan rozi bo‘lib yashashiga erishish bugungi zamonaviy davlatchilik taraqqiyotidagi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Yaqinda ayni shu ko‘rsatkichlar bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko‘magida AQSHning Kolumbiya universiteti sotsiologlari tomonidan ijtimoiy so‘rov va tadqiqotlar o‘tkazilib, shu asosda “Butunjahon baxt indeksi”ning yangi reytingida e‘lon qilindi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, ushbu ro‘yxatda O‘zbekiston **148** mamlakat orasida **47-pog‘onada**, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi a‘zo mamlakatlar orasida esa birinchi o‘rinda qayd etildi. Aytish joizki, bundan ikki yil avval mazkur ro‘yxatda mamlakatimiz **53-o‘rinni** band etgan.

Buyuk Britaniyaning nufuzli “**Ekonomist**” jurnalining e’tirof etishicha, vatanimiz poytaxti – azim Toshkent shahri obodligi va yashash uchun qulayligi jihatdan dunyo reytingida **173 ta** shahar orasida **157-o’rinni** egallaydi.

AQSHning “**The Huffington Post**” nashri tomonidan Samarqand shahri “**Dunyoning albatta borib ko’rishi kerak bo’lgan 50 shahri**” ro’yxatiga kiritilganligi va bunday e’tirofga erishishida ham MDH mamlakatlari o’rtasida O’zbekiston yagona ekani e’tiborga sazovordir. Albatta, xalqaro miqyosida Yuksak etirof etilayotgan bunday yutuq va natijalarga xalqimiz o’z – o’zidan, osonlikcha erishgani yo’q. Bularning barchasi zamirida, avvalo, o’z vaqtida to’g’ri tanlangan, “o’zbek modeli” deb nom olgan, xalqimiz mafaatlari to’la javob beradigan milliy taraqqiyot strategiyasi, el-yurtimizning fidokorona mehnati hamda asosiy qomusimiz – O’zbekiston Konstitutsiyasi bosh omil va mustahkam poydevor bo’lib xizmat qilayotir. Mana shu bugungi tinchligimizni saqlab turgan, xalqni xalovatini, xotirjamligini, tinchligini asrashga qaratilgan bugungi siyosatni nafaqat qo’llab-quvvatlash, men o’ylaymanki, bu siyosatga hamma sidqidildan xizmat qilish kerak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Sharq nashriyoti”, 1992
2. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O’zbekiston nashriyoti”, 2009.
3. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O’zbekiston nashriyoti”, 2023.
4. [https://uz .Wikipedia](https://uz.wikipedia).